

**“HAYOT MAZMUNI YO’NALGANLIGI” METODIKASINING  
SINALUVCHILARNING ISHLI YOKI ISHSIZLIGA KO‘RA  
KO’RSATKICHLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI**

Xusanov Samariddin Maxmadaminovich

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada mehnat motivining muaffaqiyatga intilish motivi bilan bog‘liqlik jihatlari ishli yoki ishsizligi va ma’lumot darajasi kategoriyalari ko‘rsatkichlari misolida o‘rganilgan. Shuningdek mehnat motivatsiyasi va unga ta’sir qiluvchi hayotiy faktorlar ichki, kognitiv, qochish motivi, tortishuv, joriy faoliyatni o‘zgartirish va o‘z-o‘zini hurmat qilish motivlari o‘rganildi.

**Tayanch so‘zlar:** motivatsiya, mehnat motivatsiyasi, intilish darajasi, ichki motiv, natijalariga qiziqish, qochish motivi, ishli, ishsiz, tortishuv motivi, tashabbuskorlik, ma’lumot darajasi, faoliyatni o‘zgartirish.

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ishsizlikni tugatish bo‘yicha olib borilayotgan keng chora-tadbirlarga qarmasdan ishsizlik ko‘rsatkichlariga mehnat motivatsiyasi yetishmayotgan mehnat layoqatiga ega shaxslar ham yuqoridagi ko‘rsatkichning sezilarni qismini tashkil qilishi ijobjiy ko‘rsatkichlardan hisoblanmaydi. Bundan kelib chiqadiki mehnat motivatsiyasi muhim hayotiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.


### **1-jadval D.A. Leontevning “Hayot mazmuni yo’nalganligi” metodikasining sinaluvchilarning ishli yoki ishsizliga ko‘ra tahlili (Mann-Uittni – U mezoni)**

№	Shkalalar	O’rtacha rang		Statistik qiymat	
		Ishli (n=202)	Ishsiz (n=112)	U	p
1	Hayotning umumiylar mazmuni	171,95	131,44	8393,000	0,000**
2	Hayotiy maqsadlar	173,28	129,04	8124,500	0,000**
3	hayot jarayoni	168,38	137,88	9114,000	0,004*
4	hayot natijaviyligi	169,83	135,26	8821,000	0,001**
5	nazorat lokusi	167,88	138,78	9215,000	0,006*
6	hayot boshqaruvchanligi	173,18	129,22	8144,500	0,000**

\* statistik tafovutlar mavjud

D.A. Leontevning “Hayot mazmuni yo’nalganligi” metodikasining sinaluvchilarning ishli yoki ishsizliga ko‘ra farqlari solishtirilganida hayotning umumiylar mazmuni ko‘rsatkichida ishlilarda o‘rtasha rang qiymati 171,95 ni, ishsizlarda 131,44 ni tashkil etdi. ( $U=8393,000$ ;  $r<0,01$ ) Hayotdan qoniqqanligi nuqtayi nazaridan, o‘zini boshqarish hayotiy sohalarida, maqsad quyish nuqatayi nazaridan jihatdan ishlilarda ishonchli farqlar chiqishi tabiiy jarayon

edi va bu ularning moddiy tamondan ta'minlanganligi, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sug'urtalanganligini anglab etganligi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, **Ishlayotganlar** o'z hayotlarini maqsadga yo'naltirilgan va mazmunli deb his qilishadi, **ishsizlar** esa, ko'pincha o'zlarining hayotlarida maqsad va mazmunni yo'qotganliklarini sezishlari mumkin. Bu farq, ish bilan band bo'lмаган shaxslarning ruhiy holatini, psixologik ta'sirlar va hayotdagi qiyinchiliklar bilan bog'lash mumkin. Hayotiy maqsadlar shkalasida ishlilarda o'rtasha rang qiymati 173,28 ni, ishsizlarda 129,04 ni tashkil etdi. ( $U=8124,500$ ;  $r<0,01$ ). Ishlilarda hayotiy maqsadlar maqsadga intiluvchanlikni, sinaluvchi hayotida uning hayotiga mazmun, yo'nalganlik beruvchi va davriy istiqbolini ko'rsatuvchi kelajak maqsadlari bor yoki yo'qligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham ishlilarda hayotiy maqsadlar yuqori chiqqan. Bunga sabab esa ishlilarda o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadlari bo'ladi. Bu maqsadlar jamiyatda obro'-e'tibor qozonish, farovon turmush-tarziga erishish, farzandlariga yaxshi shart-sharoit yaratib berish kabi hayotiy maqsadlar bilan sodir bo'ladi. Ishsizlarda esa bu tendensiya biroz boshqacha yani, o'z oldiga quygan maqsadlarning tarqoqligi ba'zi hollarda umuman past darajada ekanligi bilan ta'riflanadi. Bundan tashqari maqsadlarning pastligi ularning ma'lum turdag'i faoliyatni uddalay olmaganligiga ham bog'liq bo'ladi. Hayot jarayoni shkalasida ishlilarda o'rtasha rang qiymati 168,38 ni, ishsizlarda 137,88 ni tashkil etdi. ( $U=9114,000$ ;  $r<0,01$ ) Bu ko'rsatkichning ishlilarda yuqori chiqqanligining boisi ishlilar o'z hayot jarayonini qiziqarli, hissiy jihatdan boy va mazmunli deb qabul qilishi deb o'ylashlarini ko'rsatadi. Chunki mehnat faoliyati bilan band insonda har doim ham hayot jarayini qizg'in va samarali kechadi. Bu esa hayot jarayoni ko'rsatgichlari past chiqqan va natijada hozirgi hayotidan norozi ishsiz insonlardan farq qiluvchi belgidir. Hayot natijaviyligi shkalasida ishlilarda o'rtasha rang qiymati 169,83 ni, ishsizlarda 135,26 ni tashkil etdi. ( $U=8821,000$ ;  $r<0,01$ ) Ushbu o'lchovdagi ballar hayotning o'tishini baholashni, uning hayoti qanchalik samarali va mazmunli bo'lганligini his qilishni aks ettiradi. Ushbu shkala bo'yicha ishlilarda chiqqan yuqori ball o'z hayotini o'tgan va o'tkazayotgan bosqichlaridan roziligi va ular amalga oshirgan ishlarning hozirgi hayotiga ma'no berishi mumkin bo'lган sababiyat sifatida ko'rishlari bilan tavsiflanadi. Ishsizlarda chiqqan past ball hayotlarining o'tgan qismidan norozilik sifatida namoyon bo'lганligi bilan tariflash mumkin. Nazorat lokusi shkalasida ishlilarda o'rtasha rang qiymati 167,88 ni, ishsizlarda 138,78 ni tashkil etdi. ( $U=9215,000$ ;  $r<0,05$ ) Ishlilarda chiqqan yuqori ball o'z hayotini o'z maqsadlariga va uning mazmuni haqidagi g'oyalariga muvofiq qurish uchun etarli tanlov erkinligiga ega bo'lган kuchli shaxs sifatidagi g'oyaga mos keladi. Chunki ular o'z hayotlarini moddiy va ma'naviy tomondan nazarat qilish uchun etarli potinsialga ega ekanliklarini bilishadilar. Ishsizlarda namoyon bo'lган past ball-o'z hayotlaridagi voqealarni nazorat qilish qobiliyatiga ishonch yo'qligi bilan tariflanadi.



### 1-rasm “Hayot mazmuni yo’nalgaligi” metodikasining sinaluvchilarining ishlifi yoki ishsizliga ko’ra statistik farqlari

Hayot boshqaruvchanligi shkalasida ishlilarda o’rtasha rang qiymati 173,18 ni, ishsizlarda 129,22 ni tashkil etdi. ( $U=8144,500$ ;  $r<0,01$ ) Bu ko’rsatgich bo’yicha ishlilarda chiqqan yuqori ball ulaning o’z hayotini nazorat qilish, erkin qaror qabul qilish va ularni amalga oshirish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonishini ko’rsatadi. Ishsizlarda chiqqan past ball esa ulada fatalizm, inson hayoti ongli ravishda nazorat qilinmasligiga ishonch, tanlash erkinligi xayoliy va kelajak uchun rejalar tuzish befoyda ekanligi bilan tavsiflanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- Леонтьев Д. А. Тест смысложизненных ориентаций. 2-е изд. М.: Смысл, 2000. 18 с.  
А. А. Крылов (ред.) Практикум по экспериментальной и прикладной психологии: учебное пособие.
- S. Jalilova, N.A. G‘ayibova. Umumiyy psixodiagnostika. —T.: «Fan va texnologiya», 2018. ISBN 978-9943-11-883-6
- Lawler, Edward E; Suttle, J.Lloyd (1973). "Expectancy theory and job behavior"
- Психология мотивации достижения / Хекхаузен Х. - Санкт-Петербург: Речь, 2001; 81 стр.